

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397585>

**Tursunaliyeva Durdona Iqboljon qizi**

*Respublika musiqa va san'at kolleji*

Fortepianoda chalishga kirishishdan avval qo'shiqlarni aytish va b'rganilgan qo'shiqlarni fortepianodan topib chalish eng qulay yo'l hisoblanadi. Qo'shiq har qo'lda alohida-alohida uchinchi barmoq bilan, o'ng qo'lda ikkinchi oktavada, chap qo'lda kichik oktavada chalinadi. Qo'shiqlarning ma'noli, aniq, ravon va ta'sirchan, usulni buzmasdan aytilishiga alohida e'tibor berish lozim. Qo'shiq jonli, harakatchan ijro etilishi uchun uning xarakterini aniqlash zarur. Bunda qo'shiqning chalinishida qora va oq klavishalarining bevosita ishtirok etishi to'g'risida ma'lumot berish o'rinli bo'ladi. O'rganilgan qo'shiqlarni har xil klavishalardan topib (transpozitsiya qilib) chalish bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. O'qituvchi qo'shiq va kuylar ustida ish olib borish bilan birga, musiqa savodidan mazkur dars uchun kerakli ma'lumotlarni berib borishi kerak. Ikki-uch qo'shiq ovozda o'rganilgandan so'ng ularni klaviaturadan topib chalishga kirishish mumkin. Mashg'ulot davomida o'quvchining fortepiano oldida to'g'ri o'tirishiga e'tibor berish bilan birga ularga fortepianoning qisqacha tarixi bo'yicha ma'lumot berib turish ham lozim. Qo'shiq o'rganish bilan bir qatorda qo'l va barmoq bo'g'inlarining harakatlari ustida muntazam mehnat qilish lozim. Kuy va pyesalar barmoq bilan ijro etilmay, balki barmoq yordamida sezgi a'zolari orqali ijro etilishini hech qachon unutmazlik zarur. Shu sababli birinchi darslardan boshlab qo'shiq, kuy va pyesalarni ma'noli, kuychan, ta'sirchan ijro etilishida sezgi a'zolarining bevosita ishtirok etishi yo'lida tinmay mehnat qilish o'rinli bo'ladi. Bir klavishadan har xil mazmundagi tovushlarni ovoz yordamida topish uchun mashqlar o'tkazish, kelgusida har xil ma'nodagi tovushlarni klavishadan tezroq o'qib chalishga ancha yordam beradi.

Ashula aytish paytida uning so'zlarini aniq talaffuz etish, ohanglarini tiniqligiga erishish, usul va jumla tuzilishining buzilmasligiga, to'g'ri nafas olishga intilish zarur. Astasekin qo'shiqlarni hamma barmoqlar bilan navbatma-navbat chalishga o'tish kerak. Badan og'irligi bilan klavishani barmoq yordamida ezganda, barmoq bo'g'inlari birbiriga tayangan holda harakat qilib, klavishadan to'la va ma'noli tovush chiqishiga yo'l ochib beradi. Ijro etish jarayonida barmoq bo'g'inlari

yarim yoy shaklida bo'lishi kerak, aks holda barmoqlar juda yig'iq yoki yoziq shaklda bo'lsa, qo'l va barmoq tomirlarining tarang bo'lib qolganidan darak beradi.

Barmoqlar sezgi a'zolari bilan ulanmasa klavishadan jonsiz va ma'nosiz tovushlar chiqadi. "Do'lana" misolidan boshlab qo'shiqlarning usullari anchagina murakkablashadi. Shuning uchun bu namunalarni vaqtincha faqat ovozda aytib klavishadan topib chalishga,

o'quvchining qobiliyatiga qarab, shoshilmay kirishish lozim. "Zuv-zuv borag'ay" misolidan boshlab, qo'shiqlar ikki qo'lga bo'lingan.

Qo'llarning navbatma-navbat almashuvida jumlalar mazmunining buzilmasligiga erishish kerak, barmoqlar esa kelgusi notaga oldindan tayyorlanib turmog'i lozim.

"Boychechak" namunasi har xil barmoqlar vositasida aniq va jonli tovushlar bilan qo'l og'irligini yelkadan asta tushirib, barmoq bo'g'inlari bir-biriga tayangan holda chalinadi. Bu qo'shiqlarda dinamik o'zgarishlarga alohida e'tibor berish kerak. Notalarning chaqqon chalinishi tirsak va bilak bo'g'inlarining epchil harakatiga bog'liq. Tovushlarni bog'lab chalishga kirishishdan avval ularni ovozda bog'lab aytishni mashq qilish yaxshi natija beradi. Bog'lab chalishda bir tovushdan ikkinchi

tovushga o'tilganini eshitish orqaligina ijro etish lozim. Tovushlarni bir-biriga bog'lashda ortiqcha harakat qilmay, barmoqlarni uncha ko'tarmay bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tish malakalarini hosil qilishga alohida e'tibor berish darkor. Shu bilan birga bu mashqni bajarishda qo'l bo'g'inlari tarang bo'lib qotib qolgan holda bo'lmasligi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azimov X. Fortepiano darsligi: Musiqa maktablarining boshlang'ich sinflari uchun darslik. — T.: „O'qituvchi“ 1998.-264 b.

2. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)